



“ Methodological foundations for improving customs control of international supply chains in the Republic of Uzbekistan

Kilichev Nazar Bafoyevich

Independent researcher at the Customs Institute

ABSTRACT

This article explores the theoretical and methodological foundations of improving customs control of international supply chains in the context of the modern global economy. Definitions of "supply chain" and "customs control" by global and local scholars are systematically and comparatively analyzed, identifying existing scientific gaps and limitations. The study employs systemic, integrated, digitalization, and risk management approaches. Based on the analysis, a new author's definition is proposed, integrating state regulation mechanisms, risk management, and digital technologies. The practical significance of the paper lies in providing a theoretical framework for developing models to digitally transform customs administration and enhance supply chain security in the Republic of Uzbekistan.

Keywords:

supply chain, customs control, integration, risk management system, digitalization, electronic declaration, SAFE Framework, foreign economic activity

O'zbekiston Respublikasida xalqaro ta'minot zanjirlarini bojxona nazoratidan o'tkazishni takomillashtirishning metodologik asoslari

Kilichov Nazar Bafoyevich

Bojxona instituti mustaqil tadqiqodchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida xalqaro tovar yetkazib berish zanjirlarini bojxona nazoratidan o'tkazishni takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Jahon va mahalliy olimlarning "tovar yetkazib berish zanjiri" hamda "bojxona nazorati" tushunchalariga bergan ta'riflari tizimli va qiyosiy tahlil qilinib, ulardagi mavjud ilmiy bo'shliqlar hamda kamchiliklar aniqlangan. Tadqiqotda tizimli, integratsiyalashgan, raqamlashtirish va xavflarni boshqarish yondashuvlaridan foydalanilgan. Tahlillar asosida, davlat tartibga solish mexanizmlari, xavflarni boshqarish va raqamli texnologiyalar integratsiyasini qamrab oluvchi yangi mualliflik ta'rif taklif etilgan. Maqolaning amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasida bojxona ma'muriyatchiligini raqamli transformatsiya qilish va ta'minot zanjirlari xavfsizligini oshirish modellarini ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishidan iborat.

Kalit so'zlar: tovar yetkazib berish zanjiri, bojxona nazorati, integratsiya, xavflarni boshqarish tizimi, raqamlashtirish, elektron deklaratsiyalash, SAFE dasturi, tashqi iqtisodiy faoliyat.

Аннотация: В данной статье исследуются теоретико-методологические основы совершенствования таможенного контроля международных цепей поставок товаров в условиях современной глобальной экономики. Проведен системный и сравнительный анализ определений понятий «цепь поставок» и «таможенный контроль», сформулированных зарубежными и отечественными учеными, а также выявлены существующие научные пробелы и недостатки. В исследовании использованы системный, интегрированный, цифровой подходы и подход на основе управления рисками. На основе проведенного анализа предложено новое авторское определение, охватывающее интеграцию механизмов государственного регулирования, управления рисками и цифровых технологий. Практическая значимость статьи заключается в формировании теоретической базы для разработки моделей цифровой трансформации таможенного администрирования и повышения безопасности цепей поставок в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: цепь поставок, таможенный контроль, интеграция, система управления рисками, цифровизация, электронное декларирование, программа SAFE, внешнеэкономическая деятельность.

Zamonaviy global iqtisodiyotda tovar yetkazib berish zanjirlari xalqaro savdoning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Jahon Savdo Tashkiloti (JST) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda jahon tovar savdosi hajmi 25 trln dollardan oshdi, ammo chegara rasmiylashtirish jarayonlarining murakkabligi savdo xarajatlarining 14-15 foizini tashkil etmoqda.¹ Bu holat tovar yetkazib berish zanjirlari boshqaruvi va bojxona nazorati o'rtasidagi integratsiyaning zarurligini ko'rsatadi.

“Tovar yetkazib berish zanjiri” tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Martin Christopher “tovar yetkazib berish zanjiri”ni “xom amhyo yetkazib berishdan tortib, tayyor mahsulotni yakuniy iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan barcha faoliyatlar va jarayonlar tizimi” sifatida ta'riflaydi² hamda uning asosiy maqsadi sifatida “mijoz qimmatligini oshirish va zanjir ishtirokchilari uchun raqobatbardosh ustunlik yaratish”ni belgilaydi. Xitoylik olim Hau L. Lee esa ushbu boshqaruvga xavflarni boshqarish nuqtayi nazaridan yondoshadi. Uning “Triple-A Supply Chain” kontsepsiyasiga ko'ra, samarali ta'minot zanjiri uchta xususiyatga (chaqqonlik, moslashuvchanlik va moslik) ega bo'lishi kerak.³ Biroq, Lee global ta'minot zanjirlarida

xavflarni boshqarish muhimligini aytsa-da, bojxona nazorati xavflari alohida o'rganilmagan.

S.Chopra “tovar yetkazib berish zanjiri” boshqaruvining asosiy maqsadi sifatida “mijoz qimmatligini oshirish va zanjir ishtirokchilari uchun raqobatbardosh ustunlik yaratish”ni belgilaydi.⁴

O'zbekiston olimlaridan F. A. Karimov “tovar yetkazib berish zanjiri”ni “tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining xalqaro bozorda raqobatbardoshligini ta'minlovchi integratsiyalashgan tizim” deb ta'riflab⁵, uning asosiy muammolari sifatida logistika infratuzilmasining yetarli emasligi, axborot tizimlarining integratsiyalanmaganligi va bojxona tartibotlarining murakkabligini ko'rsatadi. B. E. Ergashev esa ushbu zanjirni “transport-logistika tizimining asosiy elementi” sifatida ko'radi va uning samaradorligini mamlakatning tranzit salohiyatini hisobga olgan holda transport infratuzilmasi bilan bog'laydi.

Bojxona nazorati davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning asosiy instrumenti hisoblanadi. A. R. Abdullaev bojxona nazoratini “davlat bojxona siyosatini amalga oshirishning huquqiy va tashkiliy mexanizmlari tizimi” sifatida ta'riflaydi.

¹ World Trade Organization. World Trade Statistical Review 2023. Geneva: WTO Publications, 2023. P. 15-18. URL: https://www.wto.org/english/trtp/stats_e.htm

² Christopher M. Logistics & Supply Chain Management. 5th ed. Harlow: Pearson Education, 2016. 320 p.

³ Lee H.L. Aligning Supply Chain Strategies with Product Uncertainties // California Management Review. 2002. Vol.

44. No. 3. P. 105-119. URL: <https://doi.org/10.2307/41166145>

⁴ Chopra S., Meindl P. Supply Chain Management: Strategy, Planning, and Operation. 7th ed. Boston: Pearson, 2019. 576 p.

⁵ Karimov F.A. Tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish: nazariya va amaliyot: darslik. Toshkent: TDIU, 2019. 456 b.

Abdullaev ta'kidlaydiki, bojxona nazoratining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:⁶

davlat chegarasidan o'tayotgan tovarlar va transport vositalarini nazorat qilish;

bojxona to'lovlarini undirish;

kontrabanda va bojxona qonunchiligining buzilishiga qarshi kurashish;

tashqi savdo siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish.

B. K. Rahimov bojxona nazoratini raqamlashtirish masalalarini o'rganadi. Uning ta'kidlashicha, "zamonaviy bojxona nazorati axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz samarali amalga oshirilmaydi".⁷ Rahimov elektron deklaratsiyalashtirish, avtomatlashtirilgan xavflarni boshqarish tizimi va elektron hujjat aylanishini joriy etish orqali bojxona nazorati samaradorligini oshirish mumkinligini ko'rsatadi.

Xorijiy olimlar ham bojxona nazoratini chuqur o'rganganlar. Alan Grainger savdoni osonlashtirish nuqtayi nazaridan bojxona nazoratini tahlil qiladi. Uning ta'kidlashicha, "bojxona tartibotlarini soddalashtirish xalqaro savdo xarajatlarini 14-15 foizgacha kamaytirishi mumkin".⁸ Grainger JSTning "Savdoni osonlashtirish bo'yicha kelishuvi" ilmiy asosini ishlab chiqqan.

David Widdowson Jahon bojxona tashkiloti eksperti sifatida bojxona nazoratining zamonaviy tendentsiyalarini tahlil qiladi. Uning "Customs in the 21st Century" asarida Widdowson quyidagi zamonaviy yondashuvlarni ko'rsatadi:⁹

xavflarni boshqarish tizimi;

avtorizatsiya qilingan iqtisodiy operator instituti;

elektron bojxona tizimlari;

bojxona raqamlashtirish.

ma'muriyatchiligini

Jahon bojxona tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan "“Tovar yetkazib berish zanjir” xavfsizligi va osonligi standartlari” global miqyosda bojxona nazoratini logistika jarayonlari bilan integratsiyalashtirish zarurligini ko'rsatadi. "SAFE Framework" dasturi ham quyidagi asosiy tamoyillarni belgilaydi:¹⁰

"tovar yetkazib berish zanjir" ishtirokchilari o'rtasida axborot almashinuvini yaxshilash;

xavflarni boshqarish tizimlarini integratsiyalashtirish;

elektron ma'lumot almashishni joriy etish;

bojxona organlari va biznes o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash.

O'zbekiston sharoitida "tovar yetkazib berish zanjiri" va bojxona nazoratini integratsiyalashtirish masalalari hali ham yetarli darajada o'rganilmagan. M. M. Xamraev "E-Tranzit" tizimi orqali tranzitni yaxshilashni ko'rsatgan bo'lsa-da¹¹, ushbu ikki yo'nalishni yagona tizim sifatida tadqiq etmagan.¹² Ammo Xamraev "tovar yetkazib berish zanjir" boshqaruvi va bojxona nazoratini yagona tizim sifatida tadqiq qilmagan.

Nazariy-metodologik yondashuvlar. "Tovar yetkazib berish zanjiri" va bojxona nazoratini boshqarishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqishda quyidagi yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

Tizimli yondashuv "tovar yetkazib berish zanjiri" va bojxona nazoratini yagona tizim sifatida ko'rish imkonini beradi. P. Checkland

⁶ Abdullayev A.R. Bojxona ma'muriyatchiligining huquqiy asoslari: monografiya. Toshkent: Bojxona akademiyasi, 2020. 287 b. URL: <https://customsacademy.uz/books/abdullaev-2020>

⁷ Rahimov B.K. Bojxona nazoratida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari: monografiya. Toshkent: Bojxona akademiyasi, 2021. 312 b. URL: <https://customsacademy.uz/books/rahimov-2021>

⁸ Grainger A. Trade Facilitation: A Conceptual Review and Ways Forward // Journal of International Trade Law and Policy. 2011. Vol. 10. No. 1. P. 39-62. URL: <https://doi.org/10.1108/14770021111110778>

⁹ Widdowson D. Customs in the 21st Century: Contemporary Issues and Challenges. Brussels: WCO, 2018. 245 p.

¹⁰ World Customs Organization. SAFE Framework of Standards to Secure and Facilitate Global Trade. Brussels: WCO, 2022. P. 12-15.

¹¹ Khamrayev M. Prospects for the Implementation of the Automated Information System "E-Transit" in the Republic of Uzbekistan // Advanced Scientific Journal. 2025. URL: <https://advancedscienti.com/index.php/AJEL/article/download/3027/5953/5985>

¹² Khamrayev M. Prospects for the Implementation of the Automated Information System "E-Transit" in the Republic of Uzbekistan // Advanced Scientific Journal. 2025. URL: <https://advancedscienti.com/index.php/AJEL/article/download/3027/5953/5985>

tizimli tahlil metodologiyasiga ko'ra, "har qanday tizim o'z elementlari, ularning o'zaro bog'liqligi va tashqi muhit bilan munosabatlari orqali tavsiflanadi".¹³

Tadqiqotda "tovar yetkazib berish zanjiri" va bojxona nazoratini boshqarishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqishda quyidagi to'rtta konseptual yondashuv va metodlar majmuasidan foydalanildi:

Tizimli yondashuv: Ushbu yondashuv jarayonlarni yagona tizim sifatida ko'rish imkonini beradi. P. Checkland tizimli tahlil metodologiyasiga ko'ra, har qanday tizim o'z elementlari, ularning o'zaro bog'liqligi va tashqi muhit bilan munosabatlari orqali tavsiflanadi. Tizim elementlari sifatida: tovar oqimi, axborot oqimi, moliyaviy oqim hamda bojxona nazorati jarayonlari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi.

Integratsiyalashgan yondashuv: Bojxona nazoratini faqat nazorat organi emas, balki zanjir samaradorligini oshiruvchi omil sifatida yagona boshqaruv mexanizmiga birlashtirish tamoyillariga (yagona platforma, XBTni birlashtirish, tartibotlarni soddalashtirish, bojxona-biznes hamkorligi) asoslanadi.

Raqamlashtirish yondashuvi: Elektron deklaratsiyalash, sun'iy intellekt, mashinaviy o'rganish, blokcheyn hamda internet narsalari va elektron plombalar kabi raqamli texnologiyalarni bojxona nazoratiga qo'llash usullari o'rganildi.

Xavflarni boshqarish yondashuvi: Bojxona nazoratini xavflarni aniqlash, baholash va kamaytirish jarayoni sifatida tahlil etish metodidan foydalanildi.

"Tovar yetkazib berish zanjiri" va bojxona nazorati tizimini quyidagi elementlardan tashkil topgan deb qarash mumkin:

tovar oqimi (fizik harakat);

axborot oqimi (hujjatlar va ma'lumotlar);

moliyaviy oqim (to'lovlar va soliq to'lovlari);

bojxona nazorati jarayonlari (deklaratsiyalashtirish, tekshiruv, to'lovlar).

Bu elementlarning barchasi o'zaro bog'liq bo'lib, ularning birining samarasizligi butun tizim samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Integratsiyalashgan yondashuv "tovar yetkazib berish zanjiri" boshqaruvi va bojxona nazoratini yagona boshqaruv mexanizmi ostida birlashtirishni nazarda tutadi. Bu yondashuvga ko'ra, bojxona nazorati "tovar yetkazib berish zanjiri" samaradorligini oshiruvchi omil sifatida ko'riladi, nafaqat nazorat organi sifatida.

Integratsiyalashgan yondashuv quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

axborot tizimlarini integratsiyalashtirish (yagona platforma);

xavflarni boshqarish tizimlarini birlashtirish;

bojxona tartibotlarini soddalashtirish;

"Tovar yetkazib berish zanjiri" ishtirokchilari va bojxona organlari o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash. Raqamlashtirish yondashuvi "tovar yetkazib berish zanjiri" va bojxona nazoratida zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llashni nazarda tutadi. Bu yondashuvga ko'ra, elektron hujjat aylanishi, avtomatlashtirilgan xavflarni boshqarish va sun'iy intellekt texnologiyalari orqali bojxona nazorati samaradorligini oshirish mumkin.

Raqamlashtirish yondashuvi quyidagi texnologiyalarni o'z ichiga oladi:

elektron deklaratsiyalashtirish tizimlari;

avtomatlashtirilgan xavflarni boshqarish tizimi;

sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish;

blokcheyn texnologiyasi;

internet narsalari va elektron plomba;

xavflarni boshqarish yondashuvi;

Xavflarni boshqarish yondashuvi bojxona nazoratini xavflarni aniqlash, baholash va kamaytirish jarayoni sifatida ko'radi.

Christopher M ta'rifida "tovar yetkazib berish zanjiri"ning fizik harakat jihatiga urg'u beradi. Bu ta'rif an'anaviy logistika yondashuvini aks ettiradi, ammo axborot va moliyaviy oqimlarni to'liq qamrab olmaydi.

Sunil Chopra va Peter Meindl "tovar yetkazib berish zanjiri"ni "tovar va xizmatlarni xom ashyo bosqichidan yakuniy

¹³ Checkland P. Systems Thinking, Systems Practice. Chichester: Wiley, 1999. 416 p.

iste'molchigacha harakatlantirish va saqlash jarayonlarini boshqarish"¹⁴ deb ta'riflaydilar.

F. A. Karimov "Tovar yetkazib berish zanjiri"ni "tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining xalqaro bozorda raqobatbardoshligini ta'minlovchi integratsiyalashgan tizim"¹⁵ sifatida ta'riflaydi.

Karimov ta'rifi raqobatbardoshlikka urg'u beradi va "tovar yetkazib berish zanjiri"ni tashqi iqtisodiy faoliyat kontekstida ko'radi. Bu ta'rif O'zbekiston sharoiti uchun muhim, ammo "tovar yetkazib berish zanjiri"ning ichki jarayonlarini batafsil ochib bermaydi.

B. E. Ergashev "tovar yetkazib berish zanjiri"ni "transport-logistika tizimining asosiy elementi"¹⁶ sifatida ko'radi va uning samaradorligini transport infratuzilmasi bilan bog'laydi.

Ergashev ta'rifi transport jihatiga urg'u beradi. Bu ta'rif O'zbekistonning tranzit salohiyatini hisobga oladi, ammo "tovar yetkazib berish zanjiri"ning boshqa elementlarini to'liq qamrab olmaydi.

Mavjud ta'riflarning umumiy tahlili va kamchiliklari. Yuqoridagi ta'riflarni tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

Umumiy jihatlar:

barcha ta'riflar "tovar yetkazib berish zanjiri"ni tizim sifatida ko'radi;

ko'pchilik ta'riflar tovar oqimini asosiy element sifatida belgilaydi;

zamonaviy ta'riflar axborot va moliyaviy oqimlarni ham qamrab oladi.

Kamchiliklar va bo'shliqlar:

davlat tartibga solish omilining yetishmasligi — deyarli barcha ta'riflar bojxona nazorati va boshqa davlat nazorati organlarining "tovar yetkazib berish zanjiri"dagi rolini hisobga olmaydi;

chegara jarayonlarining yetarli emasligi — xalqaro "tovar yetkazib berish zanjiri"larda chegara rasmiylashtiruv muhim element hisoblanadi, ammo bu ta'riflarda to'liq aks etmagan;

xavf darsjasi omilining yetishmasligi — zamonaviy global iqtisodiyotda xavflarni boshqarish muhim, ammo bu ta'riflarda alohida ta'kidlanmagan;

raqamli transformatsiya omilining yetarli emasligi — zamonaviy "tovar yetkazib berish zanjiri"lar raqamli texnologiyalarga asoslangan, ammo bu ta'riflarda to'liq aks etmagan.

Yuqoridagi tahlil asosida quyidagi mualliflik ta'rifini taklif etamiz:

"Tovar yetkazib berish zanjiri — bu xom ashyo ishlab chiqarishdan tortib, tayyor mahsulotni yakuniy iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni (tovar, axborot va moliyaviy oqimlarni) o'z ichiga olgan, davlat tartibga solish va bojxona nazorati mexanizmlari bilan integratsiyalashgan, xavflarni boshqarishga asoslangan, raqamli texnologiyalar yordamida boshqariladigan tashkilotlararo strategik hamkorlik tizimi."¹⁷

Bu ta'rif quyidagi yangi elementlarni o'z ichiga oladi:

1. Davlat tartibga solish va bojxona nazorati integratsiyasi: Ta'rifda "davlat tartibga solish va bojxona nazorati mexanizmlari bilan integratsiyalashgan" iborasi qo'shildi. Bu "tovar yetkazib berish zanjiri"ni faqat xususiy sektor emas, balki davlat nazorati organlari bilan ham o'zaro aloqada ko'rish imkonini beradi.

2. Xavflarni boshqarishga asoslanganlik: Ta'rifda "xavflarni boshqarishga asoslangan" iborasi qo'shildi. Bu zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida "tovar yetkazib berish zanjiri" samaradorligini ta'minlashning muhim omilini aks ettiradi.

3. Raqamli texnologiyalar yordamida boshqarish: Ta'rifda "raqamli texnologiyalar yordamida boshqariladigan" iborasi qo'shildi. Bu zamonaviy "tovar yetkazib berish zanjiri"larning raqamli transformatsiyasini hisobga oladi.

4. Tashkilotlararo strategik hamkorlik: Ta'rifda "tashkilotlararo strategik hamkorlik

¹⁴ Chopra S., Meindl P. Supply Chain Management: Strategy, Planning, and Operation. 7th ed. Boston: Pearson, 2019. 576 p.

¹⁵ Karimov F.A. Tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish: nazariya va amaliyot: darslik. Toshkent: TDIU, 2019. 456 b.

¹⁶ Ergashev B.E. Transport logistikasi: nazariya va amaliyot: darslik. Toshkent: TYQI, 2018. 389 b.

¹⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan mualliflik ta'rifi

tizimi" iborasi qo'llanildi. Bu "tovar yetkazib berish zanjiri"ni faqat operatsion emas, balki strategik darajadagi hamkorlik sifatida ko'rish imkonini beradi.

Ushbu mualliflik yondashuvining asosiy afzalliklari uning kompleksligi, integratsiyalashganligi, zamonaviyligi hamda amaliy qo'llanilishidir. O'zbekiston sharoitida xalqaro ta'minot zanjirlari va bojxona nazoratini integratsiyalashgan holda takomillashtirish uchun ushbu ta'rif mustahkam nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida, mazkur konseptual ta'rif va metodologik yondashuvlar dissertatsiyaning keyingi boblarida O'zbekiston Respublikasi uchun integratsiyalashgan bojxona boshqaruv modellari hamda samarali mexanizmlarini ishlab chiqishda fundamental baza vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Abdullayev A.R. Bojxona ma'muriyatchiligining huquqiy asoslari: monografiya. Toshkent: Bojxona akademiyasi, 2020. 287 b. URL: <https://customsacademy.uz/books/abdullaev-2020>
2. Checkland P. Systems Thinking, Systems Practice. Chichester: Wiley, 1999. 416 p.
3. Chopra S., Meindl P. Supply Chain Management: Strategy, Planning, and Operation. 7th ed. Boston: Pearson, 2019. 576 p.
4. Christopher M. Logistics & Supply Chain Management. 5th ed. Harlow: Pearson Education, 2016. 320 p.
5. Ergashev B.E. Transport logistikasi: nazariya va amaliyot: darslik. Toshkent: TYQI, 2018. 389 b.
6. Grainger A. Trade Facilitation: A Conceptual Review and Ways Forward // Journal of International Trade Law and Policy. 2011. Vol. 10. No. 1. P. 39-62. URL: <https://doi.org/10.1108/14770021111110778>
7. Karimov F.A. Tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish: nazariya va amaliyot: darslik. Toshkent: TDIU, 2019. 456 b.
8. Khamrayev M. Prospects for the Implementation of the Automated Information System "E-Transit" in the Republic of Uzbekistan // Advanced Scientific Journal. 2025. URL: <https://advancedscienti.com/index.php/AJEL/article/download/3027/5953/5985>
9. Lee H.L. Aligning Supply Chain Strategies with Product Uncertainties // California Management Review. 2002. Vol. 44. No. 3. P. 105-119. URL: <https://doi.org/10.2307/41166145>
10. Rahimov B.K. Bojxona nazoratida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari: monografiya. Toshkent: Bojxona akademiyasi, 2021. 312 b. URL: <https://customsacademy.uz/books/rahimov-2021>
11. Widdowson D. Customs in the 21st Century: Contemporary Issues and Challenges. Brussels: WCO, 2018. 245 p.
12. World Customs Organization. SAFE Framework of Standards to Secure and Facilitate Global Trade. Brussels: WCO, 2022. P. 12-15.
13. World Trade Organization. World Trade Statistical Review 2023. Geneva: WTO Publications, 2023. P. 15-18. URL: https://www.wto.org/english/trtp/stat_s_e.htm